

SINKOPA VA TEMP



SINKOPA VA TEMP

- REJA
- Sinkopa
- Vokal musiqada turkumlanish
- Takt aro sinkopalar
- takt ichidagi sinkopalar
- Temp
- Mel'tsel' metronomi.

Sinkopa.

Musiqqa ijrosida ritm va metr urg'ulari orqali ma'lum izchilik o'zgarishiga **sinkopa** deyiladi.


Sinkopa musiqada nihoyatda ko'p uchraydi.

U metrning kuchsiz hissasidagi tovushning navbatdagi kuchli hissasida ham eshitalishidan hosil bo'ladi.

Buning natijasida zarb metrning mana shu kuchsiz hissasiga o'tadi.

Musiqa amaliyotida sinkopalarning asosiy shakli ko'pincha quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:


a) ikki va uch hissali takt aro sinkopalar;



b) ikki va uch hissali takt ichidagi sinkopalar:



ifidalaydi



ifidalaydi



Bundan tashqari,
sinkopa pauzadan
keyin, zarbli hissaga
to'g'ri keladigan joyda
ham hosil bo'lishi
mumkin.

Vokal ijroga
mo'ljallangan
musiqada cho'zimlar
turkumlanishi
talaffuz etiladigan
nutqning o'ziga
xosligi va bo'g'in
tarkibiga bog'liq
bo'ladi

Bir bo'g'inga to'g'ri keladigan
ayrim cho'zimlar qo'shni
cho'zimlar bilan turkum bo'lib
birlashmaydi.

Shuningdek, agar bir bo'g'inga
bir necha tovush to'g'ri kelsa,
bu tovushlar cho'zimi
turkumlarga umumiy qoida
bo'yicha birlashtiriladi.

Temp (sur'at)

- Musiqa ijrosidagi tovushlar harakatining tezligi sur'at (temp) deyiladi.
- Sur'at musiqada muhim ifoda vositalaridan biri bo'lib, musiqasi mazmunini ochib berishda, uni tinglovchiga ifodali etkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
- Musiqa amaliyotida sur'atlar uch asosiy guruhga (*vazmin*, *o'rtacha* va *tez*) bo'linadi.

Sur'atlarni aniqlashda asosan ital'yancha iboralar qo'llaniladi.

Vazmin sur'atlar:	O'rtacha sur'atlar:
<i>Largo</i> – keng	<i>Andante</i> – osoyishta
<i>Lento</i> – cho'zib	<i>Andantino</i> – andantedan sal tezlatib
<i>Adagio</i> – og'ir	<i>Moderato</i> – o'rtacha
<i>Grave</i> – juda og'ir	<i>Sostenuto</i> – salobatli
	<i>Allegretto</i> – jonlanib
	<i>Allegro moderato</i> – o'rtacha tez
Tez templar:	
<i>Allegro</i> – tez	
<i>Vivo</i> –jonliroq	
<i>Vivace</i> – jadal	
<i>Presto</i> – tez, oshiqib	
<i>Prestissimo</i> – juda tez	

Asosiy sur'atlardan chetlashilganda harakat yo'nalmasini aniqlovchi ayrim qo'shimcha iboralardan ham foydalaniladi:

Molto – juda

Non tanto – u qadar sekin emas

Assai – nihoyat

Sempre – doimo

Con moto – harakat bilan

Meno mosso – kamroq harakat bilan

Commodo – erkin

Piu mosso – ko'proq harakat bilan

Non troppo – unchalik tez emas


Musiqqa asarlari ijrosi yanada ta'sirchan va ifodali bo'lishi uchun umumiy harakatni **sekin-asta tezlatishtirish va susaytirish belgilari** ham qo'llaniladi. Bular nota matnida quyidagi atamalar bilan yoziladi:

<i>Susaytirish uchun:</i>	<i>Tezlatishtirish uchun:</i>
Ritenuato – saqlanibroq	Accelerando – yanada tezlatib
Ritardando – kechikibroq	Animando – ruhlantirib
Allargando – kengaytirib	Stringendo – jadalroq
Rallentando – sekinlatib	Stretto – ixchamlashtirib

Harakatni dastlabki sur'atiga qaytarish uchun quyidagi iboralar qo'llaniladi:

A tempo.....	o'z tempida
Tempo primo.....	dastlabki sur'atda
Tempo 1.....	dastlabki sur'atda
L'istesso tempo.....	o'sha sur'atda

- Shuni ta'kidlash zarurki, musiqada qo'llaniladigan barcha sur'atlar nomlari shartli bo'lib hisoblanadi.
- Ijro jarayonida uning sur'atini yanada aniqroq bilib olish uchun Mel'tsel' tomonidan ixtiro qilingan mexanik **metronom** asbobidan yoki zamonaviy raqamli elektron metronomlardan foydalaniladi.



Metronom bir
minutda talab
etilgan zarblarni
sanaydi.